XALQ DEPUTATLARI YANGIARIQ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 21-iyul VII-12-96-12-179-K/25 Yangiariq tumani

2025-yilgi mahalliy budjet xarajatlari yoyilmasiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 148-moddasiga asosan, mahalliy byudjetdan mablag‘ oluvchi tashkilotlarning 2025-yil uchun xarajatlar yoyilmasiga 10 foiz va undan ortiq miqdordagi o‘zgarishlar mavjudligi hamda Yangiariq tumani iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari X.Bekchanovning takliflarini inobatga olib, xalq deputatlari Yangiariq tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Yangiariq tumani Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari tomonidan taqdim etilgan “Tumandagi budjet tashkilotlarining 2025-yilgi xarajatlar yoyilmasiga kiritilayotgan o‘zgartirishlar to‘g‘risida”gi hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Yangiariq tumani Kengashining 2024-yil 28-dekabrdagi VII-5-023-12-179-K/24-sonli qarorining 2-ilovasiga, mazkur qarorning ilovasiga muvofiq tegishli o‘zgartirishlar kiritilsin.

3. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (S.Jabbarov)ga 2025-yil II chorak ijrosini sifatli yakunlash va kreditor qarzdorlikka yo‘l qo‘ymaslik maqsadida tuman mahalliy budjetidan mablag‘ oluvchi budjet muassasalarining xarajatlar yoyilmasiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish vazifasi topshirilsin.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (X.Ollaberganov) va tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i S.Jabbarovlar zimmalariga yuklansin.

Kengash raisi



MATNAZAROV
ZAFARBEK
BAHADIROVICH

Xalq deputatlari Yangiariq tumani
Kengashining
2025-yil 21-iyuldagi
VII-12-96-12-179-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Yangiariq tuman mahalliy byudjetidan mablag‘ oluvchi byudjet tashkilotlarining 2025-yilgi xarajatlar yoyilmasiga kiritilayotgan o‘zgartirishlar to‘g‘risida (Xorazm viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi bilan kelishilgan holda)
MA’LUMOT

(ming so‘mda)

№	Byudjetdan mablag‘ oluvchi tashkilot nomi	Amaldagi umumiy hajmi	Kiritilayotgan o‘zgarish foizi (– kamayuvchi va + ko‘payuvchi foizlarda)	Kiritilayotgan o‘zgarishlar (– kamayuvchi va + ko‘payuvchi summalarda)	2025-yilda jami
Xalq deputatlari Yangiariq tumani Kengashining 2024-yil 28-dekabrdagi VII-5-023-12-179-K/24 -son qaroriga 2-ilovasining 2.9-bandi					
1	Suv yetkazib berish xizmati	1 272 117	-36,16%	- 460 000	812 117
Xalq deputatlari Yangiariq tumani Kengashining 2024-yil 28-dekabrdagi VII-5-023-12-179-K/24 -son qaroriga 2-ilovasining 1.1-bandi, 1-xatboshi maktabgacha ta’lim yo’nalishi					
2	Maktabgacha ta’lim tashkilotlari	12 104 047	3,30%	400 000	12 504 047
Xalq deputatlari Yangiariq tumani Kengashining 2024-yil 28-dekabrdagi VII-5-023-12-179-K/24 -son qaroriga 2-ilovasining 5-bandi (tuman hokimligi 10 000, Iqtisodiyot va moliya bo‘limiga 50 000)					
3	Davlat boshqaruv organlarini saqlash	21 279 783	0,28%	60 000	21 339 783